



BOSHQACHA TAFAKKUR, BOSHQACHA DUNYO: AUTIZM SPEKTR BUZILISHINING PSIXOLOGIK VA IJTIMOY MOHIYATI

Abduqunduzova Gulsora

Xalqaro Nordik universiteti

2-kurs maxsus pedagogika yo`nalishi talabasi


gulsoraabduqunduzova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Autizm sindromining dunyo miqyosida qay darajada rivojlanib borayotgani va kelib chiqish tarixi haqida soʻz yuritiladi. Maqolada Autizm sindromiga ega bolalar qanday individual xususiyatlarga ega ekanliklari haqida toʻliq yoritilgan. Shuningdek, ushbu sindromga ega bolalar bilan korreksion ishlarni olib borish zarurligi va taʼlim-tarbiya jarayoniga qay tarzda jalb qilish kerakligi haqida ham batafsil maʼlumotlar keltirilgan. Autizm kasalligi boʻyicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlari ham oʻrganilgan. Yana, Autizm sindromiga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashgʻulotlarda qanday metodlar va yondashuvlardan foydalanish kerakligi haqida maʼlumotlar berib oʻtilgan. Bu sindromga ega bolalarni hayotda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va oʻz oʻrniga ega boʻlishida zarur boʻlgan baʼzi koʻnikmalar keltirilgan.*

Kalit soʻzlar: *Reabilitatsiya, Autizm, moslashtirish, sindrom, yondashuv, metod, individual xususiyatlar, sensor sistema, kognitiv jarayonlar, nutq faoliyati, ruhiy rivojlanish.*

Bugungi kunda jadal rivojlanayotgan raqamli transformatsiya davri inson hayotining barcha jabhalariga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda, jamiyatda turli xil sogʻliq bilan bogʻliq muammolar va genetik hamda nevrologik holatlardagi maʼlum oʻzgarishlar ham koʻproq eʼtibor talab qilmoqda. Xususan, Autizm, Daun sindromi va Klaynfelter sindromi kabi holatlar nafaqat tibbiyot, balki taʼlim va ijtimoiy sohalarida ham dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois, bunday sindromlarning kelib chiqish omillari, ularning inson hayotiga taʼsiri hamda jamiyatdagi oʻrni haqida ilmiy asoslangan yondashuvlarni oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Autizm sindromiga ega boʻlgan bolalarning soni yildan-yilga oshib bormoqda. Dunyo miqyosida tibbiyot, psixologiya va pedagogika sohalarining eng dolzarb mavzularidan biriga aylanib ulgurdi. Soʻnggi yillarda autizm bilan bogʻliq ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshdi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (WHO) maʼlumotlariga koʻra, autizm inson miyasining rivojlanishi bilan bogʻliq nevrologik holat boʻlib, u ijtimoiy muloqot, xulq-atvor va kommunikativ faoliyatga taʼsir koʻrsatadi. Tashkilot statistikalarga koʻra, 2021-yilda dunyo boʻyicha har 127 kishidan birida autizm kuzatilgan.¹¹ Qoʻshimcha ravishda, [CDC \(Centers for Disease Control and Prevention\)](https://www.cdc.gov/nczod/dnnd/autism/) maʼlumotlariga koʻra, AQShda 2022-yil statistikasi asosida har 31 nafar boladan birida

¹¹ https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/autism-spectrum-disorders?utm_





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS


autizm spektr buzilishi aniqlangan.¹² Bu raqamlar sindromning yildan-yilga to'xtovsiz ravishda oshib borayotganini ko'rsatadi.

Autizm sindromining kelib chiqish sabablarini o'rganishda biz albatta, bugungi kundagi yetuk mutaxassislar nazariyalariyani ham kuzatib borishimiz zarur.

Kembrij universiteti Psixologiya va Psixiatriya bo'limi professori Simon Baron-Cohen Autizm sindromi haqida 750 dan ortiq ilmiy maqola chop etgan va Autizm sindromi bo'yicha ko'plab yo'nalishlarda tadqiqotlar qilgan. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyaning Tibbiy Tadqiqotlar Kengashi (MRC) Simon Baron-Cohen ga MRC Millennium medalini topshirgan. Bu mukofot unga Autizm bolalarning tug'ilishidan oldingi jinsiy steroidlar nazariyasi bo'yicha MRC tomonidan moliyalashtirilgani, Kembrij Universitetida Autizm tadqiqotlar markazini tashkil etgani va neyroxilma-xillilik (neurodiversity) haqida jamoatchilik tushunchasini rivojlantirgani uchun berilgan.

“ Ushbu medal autistik insonlarning imkon qadar erta bosqichdan boshlab ko'proq yordamga muhtoj ekanligiga va ularning mazmumli hayot kechirishlari mumkinligiga e'tibor qaratishiga umid qilaman” - Simon Baron-Cohen.

Uning MRC tomonidan moliyalashtirilgan dastlabki loyihalaridan biri 1996-yilda Autizmni 18 oylik chaqaloqlarda aniqlay olish mumkinmi yoki yo'qligini o'rganish bo'yicha edi. Uning jamoasi aniqlay olish mumkinligini isbotlab berdi va erta tashxis bolaga o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun yordam berishi kerakligi ta'kidladi.¹³






1-rasm. Sindromga erta tashxis qo'ymaslik muammolarga sabab bo'ladi¹⁴

¹² https://www.cdc.gov/autism/index.html?utm_

¹³ https://www.cam.ac.uk/research/news/simon-baron-cohen-wins-mrc-millennium-medal-for-transformative-research-autism-neurodiversity?utm_

¹⁴ Muallif ishlanmasi



Baron-Cohenning asosiy tadqiqotlari Autizm sindromiga ega bo'lgan shaxslarning ko'pchiligi bolalikning dastlabki davrida tashxis olmasligiga qaratilgan edi. Ko'p hollarda bu sindromga ega bo'lgan bolalarga kech bolalik davrida yoki voyaga yetganda tashxis qo'yiladi. Natijada ular nega boshqalardan bunday farq qilishlarini tushuna olishmaydi, maxsus yordamsiz qolishadi. Shuningdek, jamiyatga va yangi muhitlarga moslasha olmaslik, tengdoshlari tomonidan turli chetlatishlarning yuzaga kelishi yoki kamsitilish holatlariga ham uchrashi mumkin. Uning fikricha, bnday qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga asosiy sabab, ta'lim tizimi asosan Autizm sindromiga ega bo'lmagan bolalar uchun mo'ljallanganidadir. Bunday holat Autizm sindromli bolalarning ruhiy salomatligiga yomon ta'sir qilishi mumkin. Aksariyat Autizm sindromiga ega bo'lgan bolalar ta'limda ko'zlangan natijani ko'rsata olishmaydi, sindromga ega bo'lgan katta yoshli shaxslarning atiga 15 foizi ish bilan ta'minlangan. Eng yomoni shundan iboratki, har 4 ta katta yoshli Autizm sindromiga ega bo'lgan shaxsdan biri o'z joniga qasd qilishni rejalashtirga yoki bunga urinib ko'rganligidir. Baron- Cohen shunday degan- “ Jamiyatimiz Autistik insonlarni qo'llab quvvatlashda muvaffaqiyatsizlikka uchramoqda”.

Autizmning kelib chiqishiga o'nlab yillar davomida qaysi omillar sabab bo'lishi aniq aytilmagan edi. Simon Baron- Cohen va uning jamoasi fundamental ilmiy izlanishlar 20 yil ichidagi sindrom haqidagi tushunchani kengaytirishga olib keldi. Ular Autizm sindromining bola tug'ilishidan oldin shakllanishi va qisman genetik omillarga bog'liqligini aniqlashdi. Ular Autizm bilan tug'ilgan bolalarda keyinchalik, homiladorliklarida **androgenlar** (masalan, testosteron kabi jinsiy gormonlar) yuqori bo'lishini va ular Autizm bilan yakunlangan homiladorlikda **estrogenlar** (androgenlardan hosil bo'ladigan jinsiy gormonlar) darajasi ham yuqori ko'rsatkichda bo'lganini aniqlashdi. Shuningdek, tadqiqotchi Autizm sindromi neyroxilma-xillikni bir ko'rinishi ekanligini va ushbu sindromli bolalarning miyasi tug'ilishidan oldinroq boshqacha rivojlanishini aniqlagan. Bu farqli jihatlarining ayrimlari nogironlikka olib kelishi mumligini aytgan ya'ni ijtimoiy muloqot va ko'nikmalarda. Lekin, boshqa tomondan bu farqlar kuchli jihatlarga iste'dodlarga sabab bo'lashini ta'kidlagan. Misol uchun: ko'plab Autizmga ega bolalar faktlarni mayda tafsilotlarigacha juda yaxshi eslab qoladi va turli qonuniyatlarni va naqshlarni tez ilg'ab oladilar.

Yana bir mashhur olimaning Autizm sindromi haqidagi ilmiy izlanishlarini ko'rib o'tishimiz lozim. Rivojlanish psixologiyasi, genetika va neyrorivojlanish buzilishlari bo'yicha taniqli olima Elena L. Grigorenkoning ishlari asosan genetik sabablar, immun tizimi bilan bog'liq omillar, va autizmning biologik mexanizmlarini tushunishga qaratilgan. 2009-yildagi “Pathogenesis of Autism: A Patchwork of Genetic Causes” nomli maqolasida autizm bitta gen tufayli emas, balki ko'plab genetik omillar va ularning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi. U autizmni “genetik mozaika” sifatida tasvirlaydi, ya'ni turli bolalarda autizmning genetik sabablari turlicha bo'lishi mumkinligini aniqlagan. 2008-yilda Grigorenko boshchiligidagi tadqiqotda MIF



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

(Macrophage Migration Inhibitory Factor) nomli immun tizimi oqsili autizm bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi ko'rsatildi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, ayrim autizm sindromining belgilari MIF gen variantlariga mos kelgan. Bu holatda Autizm sindromida uchraydigan asosiy belgilar ya'ni ijtimoiy muloqotdagi qiyinchiliklar, nutq rivojlanishidagi muammolar va asosiysi, takrorlanuvchi xatti-harakatlar aynan MIF genlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu tadqiqotlar autizmga immunologik mexanizmlarni o'rganish yo'nalishiga muhim hissa qo'shgan.¹⁵

Grigorenkoni qilgan asosiy tadqiqotlaridan xulosa qiladigan bo'lsak, autizm sindromining ko'p genli (polygenic) tabiatga ega ekanligini, bu sindrom bilan immun sistemasi o'rtasida bog'liqlik mavjudligi va sindromning biologik va genetik mexanizmlarini integratsiyalashgan tarzda tushunish kerakligi haqida bilishimiz mumkin.

Simon Baron- Cohen	Elena L. Grigorenko
Autistik odamlar qanday fikrlaydi va ijtimoiy axborotni qanday qayta ishlaydi?	Autizmning genetik va biologik sabablari qanday?
Autizm sindromining qisman genetik omillar bilan bog'liqligi	Autizm sindromining kelib chiqish sabablariga genetik omillar va immun tizimidagi o'zgarishlarni keltirgan.
Sindromga ega bolalarni erta bolalik davridan tashxislashni ilgari surgan.	Immun tizimidagi oqsillar sindrom bilan bog'liqligi haqida tadqiqot olib borgan
Autizm sindromli bolalarda keyinchalik jinsiy gormonlarda o'zgarishlar bo'lishini aniqlagan.	Sindromga ma'lum miqdorda neyrorivojlanishning buzilishi sabab bo'lishini aytgan.

Ushbu olimlarning tadqiqotlarini taqqoslab ko'rilganda, ikkala olimning tadqiqotlarida ham ushbu sindromning kelib chiqish sabablariga ma'lum miqdorga genetik omillarning sabab bo'lishi va neyrologik rivojlanishdagi o'zgarishlarning yuzaga kelishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, sindromga ma'lum darajada immun sistemasidagi oqsillar bilan bog'liq ekanligini xulosa qilishimiz mumkin. Tadqiqotlarni o'rganar ekanmiz, Simon Baron-Cohenning eng ilgari surgan fikriga e'tibor qaratmasdan ilojimiz yo'q. Ya'ni Autizm sindromiga ega bo'lgan bolalarni erta tashxis qilish juda muhimligi va erta tashxis qilinib, tog'ri yondashilsagina, sindromli bolada kuzatiladigan ko'plab qiyinchiliklarni korreksiya qilishimiz mumkinligini uqtiradi. Ta'kidlab o'tganimizdek, bu sindromga ega bo'lgan bolalarda muloqotda, kognitiv jarayonlarda, moslashishda va yana ko'plab boshqa ko'nikmalarda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Mening fikrimcha ham, ushbu muammolarni oldini olishizga eng katta yordam beradigan jihatlardan biri bu- erta tashxisdir. Har bir bola individual, har biri o'z salohiyatiga ega, shuningdek, har bir bolaning alohida o'ziga xos xususiyatlari mavjud buni unutmasligimiz zarur!

¹⁵ https://publications.aap.org/pediatrics/article-abstract/122/2/e438/73066/Macrophage-Migration-Inhibitory-Factor-and-Autism?redirectedFrom=fulltext&utm_





1. **Feruz T.** *Inklyuziv ta'limning O'zbekistonda rivojlanishi.* – “Qo‘qon Universiteti xabarnomasi”, 2023.
2. **Mo‘minova U., Narzullayeva N.** Bolalarda uchraydigan autizm kasalligining jadallashuvi. - 2025.
3. **Maqsuda Norbosheva, Kayumova Moxinisa, Odiljonov Ozodbek Odiljonovich** Autizm spektr buzilishi: sabablari, belgilari va jamiyatdagi o‘rni. - 2025.
4. **Otajonova, O. A., Islamova, F. S., Fayazova, F. S., & Nematov, B. S.** (2022). The Influence Of Parental Relationships On Adolescent Gender Identity. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10).
5. **Abduqunduzova G.A** (2025) Autizm sindromli bolalar va ular bilan olib boriladigan rehabilitatsiya jarayonlari, 4-6(10).

